



2021- yilning yanvar-aprel oylari uchun Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar oyida Surxondaryo viloyatida jami **1 609,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **104,6 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda**

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 654 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 234 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **106,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **64,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **118,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **14,2 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **114,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **21,5 %**) o'sishidir.




Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.05.2020- yil	01.05.2021- yil	
Surxondaryo viloyatii	2 420	2 654	109,7
Termiz sh.	703	785	111,7
tumanlar:			
Oltinsoy	52	67	128,8
Angor	132	156	118,2
Bandixon	28	51	182,1
Boysun	145	138	95,2
Denov	136	162	119,1
Jarqo'rg'on	192	219	114,1
Qiziriq	149	145	97,3
Qumqo'rg'on	157	150	95,5
Muzrabot	111	111	100,0
Sariosiyo	135	144	106,7

Termiz	226	236	104,4
Uzun	51	57	111,8
Sherobod	84	96	114,3
Shoʻrchi	119	137	115,1


**Surxondaryo viloyatida faoliyat koʻrsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.05.2021- yil holatiga koʻra (ulushi, % da)**



Maʼlumot uchun: viloyatda soni boʻyicha eng koʻp ulushga ega boʻlgan qurilish korxonalari Termiz sh. (29,6 %), Termiz tumani (8,9 %) va Jarqoʻrgʻon (8,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **190,3** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **85,3 %** ga bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **2,9 %** punktga kamayib, **11,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




■ ulushi, % da ■ o'sish sur'ati, % da

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Sariosiyo tuman (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **59,8 %** i yoki 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **78,8 %**), Qumqoʻrgʻon (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,0 %** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **103,2 %**), va Termiz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **4,0 %** i, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **177,5 %**) ga toʻgʻri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **68,2 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-aprel oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,9 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **108,8 %** ni tashkil etgan holda **1 096,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **20,0 %** ni tashkil etdi yoki **322,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **104,6 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **13,3** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 595,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **0,8 %** va **99,2 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2021- yilning yanvar-aprel oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Surxondaryo viloyati	1 609,2	13,3	0,8	1 595,9	99,2
Termiz sh.	435,0	13,3	3,1	421,7	96,9
tumanlar:					
Oltinsoy	21,5	-	-	21,5	100,0
Angor	47,6	-	-	47,6	100,0
Bandixon	20,7	-	-	20,7	100,0
Boysun	78,1	-	-	78,1	100,0
Denov	91,7	-	-	91,7	100,0
Jarqo'rg'on	94,6	-	-	94,6	100,0
Qiziriq	35,0	-	-	35,0	100,0
Qumqo'rg'on	68,8	-	-	68,8	100,0
Muzrabot	114,1	-	-	114,1	100,0
Sariosiyo	222,9	-	-	222,9	100,0
Termiz	186,7	-	-	186,7	100,0
Uzun	64,8	-	-	64,8	100,0
Sherobod	93,5	-	-	93,5	100,0
Sho'rchi	34,2	-	-	34,2	100,0

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-aprel**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 76,1 % i yoki **1 223,8** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

76,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **173,5** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 91,2 % ni tashkil etdi

91,2 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **733,1** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 66,8 % ni tashkil etdi.

66,8 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **317,3** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 98,5 % ni tashkil etdi.

98,5 %




**2021- yilning yanvar-aprel oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	1 609,2	104,6	100,0
Termiz sh.	435,0	106,3	27,0
tumanlar:			
Oltinsoy	21,5	101,1	1,3
Angor	47,6	104,2	3,0
Bandixon	20,7	102,2	1,3
Boysun	78,1	105,5	4,9
Denov	91,7	102,6	5,7
Jarqo'rg'on	94,6	113,3	5,9
Qiziriq	35,0	101,4	2,2
Qumqo'rg'on	68,8	105,8	4,3
Muzrabot	114,1	117,0	7,1
Sariosiyo	222,9	90,3	13,8
Termiz	186,7	108,9	11,6
Uzun	64,8	119,4	4,0
Sherobod	93,5	100,3	5,8
Sho'rchi	34,2	105,3	2,1

**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari**

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,2 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,8 %** punktga ko'payib, **70,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,9 %** punktga kamayib, **29,6 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **43,2 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **17,1 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **56,8 %** (**17,1 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **4,0 %** punktga kamaydi va **15,1 %** ni tashkil etdi. Qolgan **84,9 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **4,0 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da



2021- yilning yanvar-aprel oylarida
tumanlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Termiz sh. (435,0 mlrd. so'm), Sariosiyo (222,9 mlrd. so'm), Termiz (186,7 mlrd. so'm), Muzrabot (114,6 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Tel.: 76 225-65-59